

# **OTILGAN SNARYADLAR IZLARIGA KO'RA SOYLI STVOLLI O'QOTAR QUOLLAR BALLISTIK EKSPERTIZASINING KONSEPTUAL ASOSLARI**

**Abduvaxob Abdumalik o'g'li ZULFUQOROV**

dotsent

yuridik fanlar bo'yicha (PhD) falsafa doktori

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

## **Annotasiya**

Maqolada otilgan snaryadlar izlari bo'yicha soyli stvolli o'qotar quollar ballistik ekspertizasining zamonaviy konseptual asoslarini ishlab chiqishga harakat qilingan.

Shuningdek, sud-ekspertlik faoliyatida nafaqat sud ballistikasida, balki sanoat usulida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va obyektlarni tadqiq qiladigan kriminalistik texnikaning boshqa sohalarida ham standartlashtirilgan texnik atamalardan foydalanish zarurligi ta'kidlangan. Mavzu bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot doirasidagi konseptual asoslarning vazifalari to'g'risida fikr yuritilgan. Soyli stvolli o'qotar quollarni otilgan o'qlardagi izlariga ko'ra aniqlash tadqiqotlarining konseptual asoslaruga oid vazifalari – umum-ilmiy vazifa; maxsus vazifalar; bevosita amaliy faoliyatning vazifalari va ekspertiza vazifalari aniqlangan.

**Tayanch so'zlar:** kriminalistika, sud ekspertizasi, o'qlar, quollar, soyli stvolli o'qotar quollar, konseptual asoslar, sud-ekspertlik faoliyatining prinsiplari, metodologiya, umumiy metodlar, maxsus metodlar, umum-ilmiy vazifa, maxsus vazifalar, bevosita amaliy faoliyatning vazifalari, ekspertiza vazifalari.

# **КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ БАЛЛИСТИЧЕСКИХ ЭКСПЕРТИЗ НАРЕЗНОГО ОГНЕСТРЕЛЬНОГО ОРУЖИЯ ПО СЛЕДАМ НА ВЫСТРЕЛЕННЫХ СНАРЯДАХ**

**Абдувахоб Абдумалик угли ЗУЛФУКОРОВ**

доцент

доктор философии по (PhD) юридическим наукам

Академия министерства внутренних дел Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

## **Аннотация**

В статье предпринята попытка разработать современные концептуальные основы баллистической экспертизы нарезного огнестрельного оружия по следам на стреляных снарядах.

А также, подчеркивается, что в криминалистической деятельности необходимо использовать стандартизированные технические термины не только в судебной баллистике, но и в других областях криминалистической техники, которые исследуют продукты и объекты, произведенные промышленным способом. В рамках проведенных исследований по теме, были высказаны мнения о задачах концептуальных основ. Определены задачи исследований концептуальных основ обнаружения по следам

нарезного огнестрельного оружия на выпущенных пулях - общенаучная задача; специальные задачи; задачи непосредственной практической деятельности и экспертные задачи.

**Ключевые слова:** криминалистика, судебная экспертиза, пули, оружие, нарезное огнестрельное оружие, концептуальные основы, принципы судебно-экспертной деятельности, методология, общие методы, специальные методы, общенаучные задачи, специальные задачи, задачи непосредственной практической деятельности, экспертные задачи.

O‘qlardagi izlar bo‘yicha soyli stvolli o‘qotar qurollar kriminalistik ekspertizasining zamonaviy konseptual asoslarini ishlab chiqishda, ko‘rib chiqilayotgan faoliyat amaliy xususiyatga ega degan fikrdan kelib chiqamiz, chunki u haqiqiy va aniq holatlarni o‘rganishga, ya’ni voqelikni uning zarurligiga qarab muhim hodisalarni bilishga yo‘naltirilgan.

Har qanday nazariyaning dastlabki, asosiy qonun-qoidasi (konseptual asosi) prinsip hisoblanadi. “Prinsip (prinsip) – biror nazariya, ta’limot, dunyoqarash va sh.k. ning dastlabki, asosiy qonun-qoidasi; faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g‘oya, qonun-qoida” [15; b.309]. Bundan kelib chiqadiki, prinsiplar (prinsip) atrofida ushbu prinsiplarni ochib beradigan va rivojlantiradigan barcha qoidalar jamlanadigan yadroni tashkil qilishi kerak.

Konseptual asoslar sintezlovchi (hosil qiluvchi, shakllantiruvchi) prinsipga ega bo‘lishi kerak. Bunday prinsip bo‘lmasa, o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, yagona prinsip va bitta fundamental g‘oya bilan birlashmagan tushunchalar, fikrlar, qonunlarning oddiy yig‘indisi hosil bo‘ladi. Prinsip konseptual asoslarni tashkil etuvchi barcha boshqa elementlardan sezilarli darajada farq qiladi. U asosiy, belgilovchi element bo‘lib, barcha boshqa elementlarning asosida (poydevorida) yotadi va boshqa barcha tarkibiy qismlarni o‘ziga bo‘ysundiradi. Binobarin, konseptual asoslarning har bir elementi, o‘z navbatida, ushbu prinsipni ochib beradi, tavsiflaydi va umuman olganda, ularning yig‘indichi ilmiy konsepsiyaning yagona tizimini shakllantirib, uni nazariy jihatdan asoslaydi.

O‘q izlari bo‘yicha soyli stvolli o‘qotar qurollarning kriminalistik ekspertisasi konseptual asoslarining asosiy prinsipi dialektik ayniyat haqidagi

materialistik ta'limotdan kelib chiqadi va har bir moddiy obyektning alohidaligi (individuallik) va uning aks etish qobiliyati to'g'risidagi qoidalardan iborat bo'ladi va buning natijasida uni aynanligini aniqlash (identifikatsiyalash) imkoniyati paydo bo'ladi. Ushbu prinsip yadro sifatida konseptual asoslarni yanada rivojlantirish va ularning mazmunini ochib berish imkoniyatini yaratadi.

O'qlardagi izlar bo'yicha soyliv stvulli o'qotar qurollarning kriminalistik ekspertizasi konseptual asoslarining bilish jarayonini tartibga soluvchi ilmiy prinsiplari ana shular hisoblanadi. Ushbu sohada amaliy ekspertlik faoliyati prinsiplarini ko'rib chiqishda quyidagilar kuzatiladi. Sud-ekspertlik faoliyatining prinsiplari deganda jamiyatning, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy va jinoyat ishlari bo'yicha sud ekspertizalarini tashkil qilish va o'tkazish jarayoniga o'zining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar timsolida yordam berishning mazmuni, maqsadi va vazifalariga nisbatan konseptual qarashlarini ifodalaydigan asosiy qoidalar tushuniladi. "Qonuniylik, inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi, sud ekspertining mustaqilligi, sud-ekspert tekshirishlarining xolisligi, har tomonlamaligi va to'liqligi sud-ekspertlik faoliyatining asosiy prinsiplaridir" [1].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, fikrimizcha, amaliy ekspertlik (shu jumladan, prosesual) faoliyatining quyidagi prinsiplarini ajratib ko'rsatish lozim:

sud ekspertining mustaqilligi prinsipi; qonuniylik prinsipi; ekspertiza tadqiqotlarining to'liqligi prinsipi; tadqiqotning rejaliligi, tadqiqotning borishi va natijalarning ishonchliligi hamda ko'rgazmaliligi prinsipi; ekspertiza metodikasini yaratish (ishlab chiqish) prinsipi; murakkab ekspertiza vazifalarini hal qilishda turli mutaxassislikdagi sud ekspertlarining o'zaro hamokrligini o'z ichiga olgan kompleks yondashuv prinsipi; odob-axloq prinsipi.

Konseptual asoslar tarkibida faoliyatning ma'lum bir sohasini aks ettiruvchi va prinsip shakli bo'lgan qonunlar markaziy o'rinni egallaydi. Ko'rib chiqilgan konseptual asoslarning prinsiplari va materialistik dialektikaning qonunlari, shuningdek amaliy ekspertlik faoliyatining prinsiplari ko'rib chiqilayotgan tuzilmaning yuqori bosqichlarida joylashgan bo'lib, ularning yadrosi va asosiy

mohiyatini tashkil etadi.

Har qanday ilmiy nazariya uning predmeti tushunchasini shakllantirishni ham talab qiladi. “Sud ekspertizasining mohiyatini ochib beradigan asosiy elementlardan biri uning predmetidir. Sud ekspertisasi nazariyasida uning predmeti sifatida ko‘rilayotgan jinoyat (fuqarolik) ishi materiallarini maxsus ilmiy bilimlar asosida o‘rganish va tekshirish jarayonida aniqlanadigan ma'lumotlar (faktlar, shart-sharoitlar) deb ta'kidlanadi. Ekspertizaning predmeti ekspertiza tadqiqotlarining obyektlari va tergovchi (sud)ning ekspert oldiga qo‘yadigan savollar bilan aniqlanadi” [14; 24].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizning tadqiqotimizning konseptual asoslari predmeti ushbu turdagi tadqiqotni amaliy faoliyat sifatida belgilaydigan o‘ziga xos obyektiv qonuniyatlar guruhi bo‘lishi kerak. Jumladan, “Sud ballistikasining predmeti hisoblangan qonuniyatlar sirasiga quyidagilar kiritiladi:

– o‘qotar qurollar, ularning qism va mexanizmlari, o‘qotar qurollarning o‘q-dorilari va ularning tarkibiy qismlarini tayyorlash va ishlatish shart-sharoitlari haqidagi moddiy olamda aks etadigan ma'lumotlar, shuningdek o‘q otilishi jarayoni va ushbu jarayonda hosil bo‘ladigan otilgan o‘q va gilzalarda hamda o‘q tekkan obyekt va buyumlardagi izlar haqidagi ma'lumotlar; – o‘qotar qurollar, o‘q-dorilar va ularni ishlatish izlarini aniqlash, qayd etish, olish, saqlash va tadqiq qilish usullari, vosita va metodlari; – tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarni jinoyatlarni ochish va jinoyat ishlari bo‘yicha haqiqatni aniqlashda foydalanish qonuniyatlari” [14; 22].

Yuqoridagi fikrlar asosida soyli stvolli o‘qotar qurollarni o‘qlardagi izlari bo‘yicha aniqlash ekspertisasi predmetini kriminalistika tomonidan ham, sud ekspertizasining umumiy nazariyasi tomonidan ham o‘rganilgan, shu jumladan o‘ziga quyidagilarni qamrab oladigan obyektiv voqelik qonuniyatlari deb ta’riflash mumkin:

– o‘qlarda stvol kanali izlarining otilgan o‘qlarda aks etish mexanizmi;  
– o‘qotar qurol qismlarining iz hosil qiluvchi sirtlarining alohidaligini, o‘qotar qurolning identifikasiya davrini va nisbiy barqarorligini aniqlash;

– soylı stvolli o‘qotar qurollarnı identifikasiya qilish bilan bevosita bog‘lıq bo‘lgan ichki va tashqi, shuningdek texnik tısdagi turli omıllarning ta’siriga, iz hosil bo‘lish mexanizmi, soylı stvolli o‘qotar qurol, o‘qlar va ularning o‘zaro ta’sirlashishi natijalarining tadqiqotlari bilan bog‘liq holda izlarnı hosil bo‘lish mexanizmining o‘zgaruvchanlıgı.

Shunday qilib, soylı stvolli o‘qotar qurollarnı otılğan o‘qlardagi izlariga ko‘ra aniqlash ekspertizasining konseptual asoslari metodologiyasini aniqlashga kirishamiz.

Konseptual asoslar metodologiyasi uchun uning fanning umumiy metodologiyasi bo‘lgan materialistik dialektika bilan bog‘liqligini aniqlash juda muhim, chunki materialistik dialektika borliqning umumbashariy qonunlarini o‘rganadi va uni umumbashariy ilmiy metodologiya sifatida ajratib turadi. Ta’kidlash joizki, metodologiyani faqat bilish usullari tizimi (metod va “logos” – ta’limot) deb tushunish bilan cheklanmaslik kerak. Bu masalada T.V. Averyanova: “bu metodologiyaning mohiyatini tushunishda ma’lum bir darajada noto‘g‘ri. Bilish metodlari, shu jumladan nazariy tuzilmalarning shakllantirish metodlari, nazariyalarning o‘zi haqidagi ta’limot metodologiyaning ajralmas elementidir. Binobarin, gap bilish usullari haqidagi ta’limot metodologiyaning mazmuni bilan cheklanmasligi haqida boradi. Ma’lumki, har qanday nazariya bilish metodologiyasi rolini o‘ynaydi, chunki u tadqiqot yo‘lini ko‘rsatadi va uning maqsadlarini belgilaydi” deb ta’kidlaydi [2; 79].

“Metodologiya (metod va ...logiya so‘zlaridan) – tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash prinsiplari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta’limot. Metodologiya metodlar haqidagi ta’limot yoki yalpi – umumiy bilish metodi, deb ham ta’riflanadi. Metodologiya metodlarga va umuman voqelikka qanday yondashish yo‘lini o‘rgatadi” [17; 461]. Muammoning to‘g‘ri bayon etilishini ta’minlash orqali metodik bilimlar vazifalarnı hal qilish uchun zarur vositalar va metodlarnı aniqlashga va shu bilan tadqiqotlarnı yuqori ilmiy darajada tashkil etishga imkon beradi.

Kriminalistika va sud ekspertizasining umumiy metodik jihatlariga nisbatan

esa muhim bir holatni ta'kidlash kerak. Gap shundaki, har qanday kriminalistik texnikaning metodik asoslari, shu jumladan, sud ballistikasi va ko'rib chiqilayotgan konseptual asoslar muammolarini jinoyatlarni tergov qilishning maqsad va vazifalaridan ajratilgan holda ishlab chiqish hech qanday ma'noga ega bo'lmaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, soyli stvolli o'qotar qurollarni otilgan o'qlardagi izlariga ko'ra aniqlash ekspertizasining metodologik asoslari – jinoiy maqsadlarda soyli stvolli o'qotar qurollarni ishlatish bilan bog'liq kriminalistik ahamiyatga ega ma'lumotlarni aniqlash, tadqiq qilish, baholash va ulardan foydalanishga qaratilgan surishtiruv, tergov va ekspert faoliyatini tashkil etishning, shuningdek, ushbu o'qotar qurol va uning o'qlardagi izlarini tadqiqotlarining nazariy qoidalari, metodlari, prinsiplari va usullari tizimi sifatida belgilanishi kerak.

Yuqoridagi fikrlarga va ko'plab olimlar [2], [6], [7], [8], [9], [11], [14] tomonidan ishlab chiqilgan kriminalistika metodlari va sud ekspertizasining umumiy nazariyasi tizimiga asoslanib, soyli stvolli o'qotar qurollarni otilgan o'qlardagi izlariga ko'ra aniqlash ekspertizasining konseptual asoslari metodlari tizimini quyidagicha ifodalash mumkin: umumiy (materialistik dialektika), umumiy (umumilmiy) va maxsus metodlar. Bu masalada soha mutaxassislari “Metodlarni qo'llash sohalariga bog'liq ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: – bilishning umumiy metodi; – barcha fanda yoki amaliy faoliyatning barcha sohalarida qo'llaniladigan umumilmiy metodlar; – muayyan bir obyektни o'rganishda qo'llaniladigan maxsus metodlar” deb ta'kidlaydilar [14; 31].

Konseptual asoslarning maxsus metodlariga quyidagilar kiradi:

identifikasiya qilish jarayonida foydalaniladigan obyektlarning tasvirlarini va ulardagi izlarni makro va mikrofotografiya usullari bilan olish metodi; aynanlikni aniqlovchi (identifikasiya qiluvchi) eksperimental obyektlarini olish metodi; obyektlarni mikroskopik tadqiqotlari metodi; profilometriya; avtomatlashtirilgan ballistik identifikasiya qilish tizimlari (“ABIS” ) yordamida o'qlar va gilzalardagi o'qota qurol izlarining tadqiqotlari metodi; rastrli elektron

mikroskopiya metodi; materiallar, ashyolar va buyumlarning kriminalistik ekspertizasining metodlari.

Bizning tadqiqotimizning bevosita obyekti tushunchasiga kelsak, bu yerda, birinchi navbatda, tadqiqot obyekti ekspertiza yoki tadqiqot turining aniqlovchi belgisi, soyli stvolli o'qotar quoldan foydalanish bilan bog'liq holatlar yoki hodisalar to'g'risida ma'lumot manbai bo'lishi kerakligini ta'kidlash kerak. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi JPKning 87- va 172-moddalariga muvofiq, identifikatsiyaviy sud-ballistik ekspertizasiga taqdim qilinadigan obyektlar ashyoviy dalillar maqomiga ega.

Biz soha mutaxassislarining kriminalistik tadqiqotlarning bevosita tadqiqot obyektlari bo'lib moddiy obyektlar va jarayonlar hisoblanadi, degan fikrlariga qo'shilamiz [2], [6], [7], [8], [9], [11], [14]. "Ashyoviy dalillar, tadqiqot uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, shuningdek sud ekspertisasi o'tkazilayotgan ish materiallari tadqiqot obyektlari bo'lishi mumkin. Tadqiqotlar tirik odamga nisbatan ham o'tkaziladi. Tadqiqotni o'tkazish va xulosa berish uchun sud ekspertiga zarur bo'lgan tirik odam, murda, hayvon, o'simlik, buyum, material yoki moddaning xususiyatlarini aks ettiruvchi obyektlar tadqiqot uchun namunalardir" [1].

Bizning tadqiqotimiz doirasida bu kabi obyektlar quyidagilar hisoblanadi: inson hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlarning ma'lum bir qismi o'qotar qurol yordamida sodir etiladi. Masalan, K.K. Avagumyanning ma'lumotlariga ko'ra, qotilliklarning 36 foizi o'qotar qurol yordamida sodir etiladi, ularning taxminan 65 foizi soyli stvolli o'qotar qurol yordamida sodir etilgan [3; 10]. Bu har xil turdagi soyli stvolli o'qotar qurollar – to'pponchalar, revolverlar, to'pponcha-pulemyotlar, vintovkalar, karabinlar, zavod usulida va qo'lbola usulda yasalgan avtomatlar, qirqma miltiq va karabinlardir

O'zbek tilining izohli lug'atida "fikrlamoq – biror kimsa, narsa yoki hodisa, jarayon haqida muayyan bir xulosaga kelish maqsaidida mulohaza yuritmoq" deb bayon qilingan [16; 345]. "Fikrlash barcha odamlarda keng tarqalgan bo'lib, har bir shaxs bir qator o'ziga xos bilim va ko'nikmalarga ega. Boshqacha qilib

aytganda, har bir inson turli xil fikrlash jarayonlarini qabul qilishi va rivojlanishi mumkin. Fikrlash tug'ma emas, aksincha keyinchalik (hayot davomida) rivojlanadi. Garchi shaxslarning shaxsiy va kognitiv xususiyatlari fikrlashning bir yoki bir nechta o'ziga xos turlarini afzal ko'rishga undaydigan bo'lsa-da, odamlar har qanday fikrlash turini rivojlantirishi va amalda qo'llashi mumkin. Garchi an'anaviy usulda fikrlash aniq va chegaralangan faoliyat sifatida talqin qilinsa-da, bu jarayon oddiy emas. Boshqacha qilib aytganda, fikrlash va fikrlash jarayonlarini amalga oshirishning muayyan usuli yo'q" [13].

Obyektlarning muhim xususiyatlarini ochib beradigan tushunchalarga kelsak, ular ilmiy bilimlarni ifodalashning, ya'ni fikrlashning muhim shakli ekanligini ta'kidlash kerak. Tushunchalarda obyektlarning muhim xususiyatlari, ularning aloqalari va qonuniyatlari haqidagi barcha bilimlar jamlanadi.

O'rganilayotgan konseptual asoslar tarkibidagi tushunchalar muhim ahamiyatga ega, chunki ularsiz hech qanday fikrlash jarayoni amalga oshirilmaydi. Shuning uchun tushunchalar qanchalik mukammal bo'lsa, ular o'rganilayotgan obyektlar, jarayonlar va hodisalarni shunchalik aniq aks ettirsa, ushbu tushunchalarni qo'llaydigan fikrlash jarayoni qanchalik mukammal bo'lsa, shakllantiriyotgan konseptual asoslar shunchalik mukammal bo'ladi.

Shu asosda biz ekspertlik faoliyati jarayonida, nafaqat sud ballistikasida, balki sanoat usulida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va obyektlarni [10; 71] tadqiq qiladigan kriminalistik texnikaning boshqa sohalarida ham standartlashtirilgan texnik atamalardan foydalanish zarur deb hisoblaymiz. Sud ekspertizasining boshqa turlari bo'yicha mutaxassislar ham bunday yondashuv zarurligi to'g'risida fikr yuritganlar [12; 11]. Sud eksperiza sohasida atamashunoslik bilan bog'liq muammolar mavjudligi O'zbekistonda ham fundamental darajada tadqiq qilingan. A.A. Zulfuqorov "Dissertasiya mavzusi bo'yicha maxsus adabiyotlar va sud ekspertiza amaliyotining tahlillari hamda amaliyotchi xodimlari o'rtasida o'tkazilgan sosiologik so'roqlar natijalarini umumlashtirish natijasida, nafaqat yo'l-transport hodisalari bo'yicha trasologik ekspertizasiga, balki SEFga oid qonunchilikni takomillashtirish (jumladan, yuridik atamashunoslik sohasida) talab

etiladigan muammolarga duch keldik. Jumladan: .... “Sud ekspertiza to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining matnida “tekshirish” so‘zi ishlatiladi, misol uchun: qonunning 8-moddasi “Tekshirishlarning xolisligi, har tomonlamaligi va to‘liqligi” deb nomlanadi: “Sud eksperti tekshirishlarni xolisona, qat’iy ilmiy va amaliy asosda, tegishli ixtisoslik doirasida, har tomonlama va to‘liq hajmda o‘tkazadi. ....” yoki 9-moddasi “Tekshirish obyektlari” deb nomlanib, unda “Ashyoviy dalillar, tekshirish uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, shuningdek sud ekspertizasi o‘tkazilayotgan ish materiallari tekshirish obyektlari bo‘lishi mumkin. Tekshirishlar tirik odamga nisbatan ham o‘tkaziladi...” deb belgilangan. .... “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuni hamda boshqa bir qator sohaviy kodekslarda qo‘llanilgan “tekshirish” so‘zi bilan sud ekspertlik faoliyatining mohiyati to‘liq qamrab olinmagan. Shu sababli, “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuni hamda sohaviy kodekslarda (sud ekspertizaga oid qismlarida) ishlatilgan “tekshirish” va “tekshiruv” so‘zlarini “tadqiqot” atamasi bilan o‘zgartirishni taklif qilinadi” [4; 88–90].

Nihoyat, mavzusi bo‘yicha olib borayotgan tadqiqot doirasidagi konseptual asoslarning vazifalari to‘g‘risida fikr yuritamiz. Mavzuning amaliy yo‘naltirilganligi – ushbu vazifalarni aniqlashda tegishli yondashuvni qo‘llashga majbur qiladi. Umuman olganda, vazifani muayyan sharoitlarda qo‘yilgan maqsad sifatida ta’riflash mumkin. T.V. Averyanova ekspertiza vazifalarini ko‘rib chiqib, uchta asosiy guruhni ajratib ko‘rsatgan:

Shunday qilib, soyli stvolli o‘qotar qurollarni otilgan o‘qlardagi izlariga ko‘ra aniqlash bo‘yicha kriminalistik ekspertizasining konseptual asoslarining yuqoridagi tarkibiy qoidalari – elementlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan va bir-biridan bevosita kelib chiqadigan bilimlar tizimi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Konseptual asoslar aniq bir predmet bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bu turdagi konseptual asoslarni tuzish ishlab chiqilayotgan faoliyatning amaliy yo‘nalishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Суд экспертизаси тўғрисида: Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 1 июндаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2010. – №22.
2. Аверьянова Т.В. Судебная экспертиза. Курс общей теории. – Москва, 2008.
3. Авагумян К.К. Криминологический анализ и предупреждение убийств, совершаемых с использованием оружия: Автореф. дис. канд. юрид. наук. – М., 2001. – 23 с.
4. Zulfuqorov A.A. Yo‘l-transport hodisasi natijasida qolgan izlarning trasologik tadqiqoti: Yuridik fanlar bo‘yicha (PhD) falsafa doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022.
5. Криминалистика: дарслик. 1-қисм // проф. Ғ.А. Абдумажидов таҳрири остида. – Тошкент, 2003. – 362 б.
6. Kriminalistika. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU, 2018. – 515 б;
7. Маматкулов Т.Б. Криминалистика: дарслик. – Тошкент, 2015. – 457 б.
8. Джуманов Ш.Т. Криминалистика: Дарслик. – Тошкент, 2017. – 476 б.
9. Криминалистика: учеб. для вузов / Т. В. Аверьянова [и др.]; под ред. Р. С. Белкина. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва, 2006. – 992 с.
10. Кокин А.В. К вопросу об определении модели нарезного огнестрельного оружия по следам на выстреленной пуле // Экспертная практика, 2002. – № 53. – С.70-91.
11. Рустамбаев М.Х., Норбоев А. Криминалистика: Чизмалар альбоми. – Тошкент, 2002. – 247 б.
12. Сосенушкина М.Н. Некоторые аспекты совершенствования подготовки экспертов криминалистов в области технико-криминалистической экспертизы документов // Судебная экспертиза: дидактика, теория, практика. Сб. науч. тр. Вып. 2. – М., 2005. – С.11.
13. Fikrlashning 15 turi va ularning qanday ishlashi haqida /

<https://xabardor.uz/kr/post/fikrlashning-15-turi-va-ularning-qanday-ishlashi-haqida>.

14. Хасанов Ш.Х., Тураббаев Х.А., Хусанов А.Д. Баллистик экспертиза: дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013. – 444 б.

15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. П – ҳарфи. / Таҳрир хайъати: Э.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов, Т.Мирзаев (раҳбар), Н.Тўхлиев, Э.Умаров, Д.Худойберганова, А.Ҳожиев. А.Мадвалиев таҳр.ост. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. –

16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ф – ҳарфи. / Таҳрир хайъати: Э.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов, Т.Мирзаев (раҳбар), Н.Тўхлиев, Э.Умаров, Д.Худойберганова, А.Ҳожиев. А.Мадвалиев таҳр.ост. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. –

17. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

[https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston\\_milliy\\_ensiklopediyasiO'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20K%20harfi.pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasiO'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20K%20harfi.pdf).